

kasalliklar yillar davomida ko'payganligi aniqlandi. Olingan tahlil natijalari shuni ko'rsatki 2021 yilda atmosfera havosini ifloslanishi boshqa yillarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Barcha yillarda chang asosiy ifloslantiruvchi manba bo'lib qolaverdi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Bokijonov F. A. (2024). Analysis of deases in elderly and senile persons, affecting active work activity. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(1), 360-364.
2. Boqijonov F.A., Nazirova M.R., Mamadaliyev D.D. (2024). Hygienic assessment of the level of atmospheric air pollution. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(01), 66-68.
3. Boqijonov F.A. Atmosfera havosi ifloslanishini aholi salomatligiga ta'sirini gigiyenik baholash (Farg'ona shahar misolida) //Journal of innovations in scientific and educational research. 6.5 (2023): 648-653.
4. Matxoshimov N.S., Boqijonov F.A. (2022). Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining nogiron bo'lish ehtimolligi va uning prognozi (Farg'ona viloyati misolida). *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(3), 452-455.
5. Boqijonov F.A. (2024). Hygienic assessment of the impact of atmospheric air pollution on public health. *journal of scientific research, modern views and innovations*, 1(1), 7-12.
6. Boqijonov F.A. (2024). Hygienic assessment of the probability of disability of the working age population. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
7. Boqijonov F.A., Ismoilov D.T. Atmosfera havosi holatining aholi salomatlik darajasiga ta'sirini gigiyenik baholash. "Iqro Indexing 7.2 (2024).

#### **ALLERGIK KASALLIKLARNI KELIB CHIQISHIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR**

*Burxonova G., Sattorova R.  
Central Asian Medical University*

Dunyoda allergik kasalliklar shakllanishi va tarqalishiga tashqi muhit omillarining ta'siri, yangidan-yangi allergenlarning paydo bo'lishi, mikroekologiyaning (ichaklar, teri, shilliq qavatlar florasi) buzilishi, stress sabab bo'lmoqda. Eng ko'p tarqalgan etiologik muhim allergenlar ichida o'simliklar changi alohida ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda ularning 700 dan ortiq turi aniqlangan [1, 3]. Allergik kasalliklar geterogenligi, irsiy omillarning hamda tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri oqibatida allergenlar spektri kengayib bormoqda.

Allergiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib 'allos' begona va 'ergo' ta'sir degan ma'noni anglatadi. Shulardan allergik rinit dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda ushbu kasallikdan aholining 30% - 50% aziyat chekmoqda. Ushbu patologiyaning rivojlanishida tibbiy-biologik va sanitar-gigiyenik omillarning ta'siri bilan bir qatorda atrof muhit omillarining ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Atmosfera havosining ifloslanishi allergik rinitning kelib chiqishi, rivojlanishiga va qaytalanishiga sabab bo'lishi olimlarning tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha tasdiqlanmoqda

Sizga ma'lumki, allergiya bu –inson organizmida tashqaridan allergenlik xususiyatiga ega bo'lgan har xil yot begona bo'lgan moddalarga nisbatan paydo bo'ladigan o'ziga xos kasallik hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, respublika va viloyat davolash muassasalariga murojaat qilgan bemorlar orasida shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan 10 marta ko'p. Bu yerda ekologiya ham katta ahamiyat kasb etadi. Bir respublikaning turli qismlarida allergik kasalliklar tarqalishi bir tekis emas. Masalan, Qozog'istonning janubiy mintaqalarida pollinoz 10-15 foiz aholida kuzatilgan bo'lsa, shimolida esa aholining faqat I foizida qayd etilgan. Atmosfera havosi yuqori darajada ifloslangan mintaqalarda (masalan, metallni qayta ishlash, sement chiqarish korxonalar, issiqlik elektrtansiyalari yaqinida joylashgan rayonlarda) allergik kasalliklar bilan davolash muassasalariga muroja't qilgan bemorlar soni, toza havoli hududlarga qaraganda 8-10 marta

ko'proqdir. Shunday holatni hatto bir shaharning o'zida ham ko'rish mumkin. Bu kasallikni rivojlanishida ekologik vaziyat va atrof-muhitdagi ekologik holat asosiy muamolardan biri hisoblanadi.

Nafas yo'llari allergik kasalliklarini oldini olish usullariga kasallik oldi davrida ishlab chiqarishdagi zararli omillarga qarshi kurashish, profilaktik ko'riklar o'tkazish, kasallik xurujini oldini olish va davolashlar kiradi. Shunday ekan, allergik kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari har tomonlama bo'lishi kerak, ular birlamchi va ikkilamchi tadbirlarga bo'linadi. Birlamchi chora-tadbirlarga, asosan atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy umum- davlat chora-tadbirlarini ishlab-chiqarish, yashash sharoiti va mehnat sharoitini qulaylashtirish, ishlab chiqarishdagi kasbga oid zararli omillarga qarshi kurashish kiradi. Bunga yana tibbiy (dispanser ko'rigi) va alohida xususiy tadbirlar (chekishni tashlash) ham kiradi. Ikkilamchi chora-tadbirlarga bular bemorlarni shifoxonalarda, poliklinikalarda, tibbiy sanitar qismlarida, sanatoriyalarda davolash va sog'lig'ini tiklash, allergologik kuzatish usullarini tashkil qilish kiradi. Allergik kasalliklarini oldini olish omillaridan biri – maxsus giposensibilizatsiya hisoblanadi. O'z vaqtida o'tkazilgan immunoterapiya kasallikni xurujini oldini oladi. Bemorlarni sog'ligini kuzatib borish usuli (dispanserizatsiya) sanator- kurort sharoitida davolash ham oldini olish chora-tadbirlarining eng samarali usullari hisoblanadi. Bunda kurort joylarning geografik iqlim sharoiti, qulay harorat, o'rtacha namlik, quyosh nurlari juda ham yuqori qizdirmaydigan sharoitlari, atmosfera havosida polyutantlar, muallaq holda turuvchi birikmalar bo'lmasligi yetakchi o'rin tutadi.

Ekologig ta'sirlar natijasida allergik kasalliklarning bir necha turlari paydo bo'lganki, quyidagilar aholi o'rtasida eng ko'p tarqalgan:

1. Chang va changga allergiya simptomlari quyidagi belgilarga ega: Burun bitishi, ko'zlarning qichishi, burun qichishi, ko'zlarning ishishi, ko'zlarning yoshlanishi, ko'zlarning qizarishi.

2. Dori vositalariga allergiya belgilari quyidagilar: Ovozning xirillashi, tilning shishishi, labning shishishi, yuzning shishishi, teri toshmasi, qichimasi.

Allergiyani keltirib chiqarish omillari ekologiyaga bog'liq bo'lib, uch davrga bo'linadi; boshlang'ich davr mart oyining boshidan may oyi o'rtasigacha, ya'ni daraxtlar gullashi paytiga to'g'ri keladi. Ikkinchi davr may oyidan iyulning oxiri, avgust boshigacha davom etadi. Bu vaqt dala o'tlarining gullashi yuz beradi. Uchinchi davri esa boshqoqli o'simliklar gullashi bilan bog'liq, avgust oyidan noyabrigacha cho'ziladi. Hozirgi vaqtda allergen bo'lishi mumkin bo'lgan mingdan ortiq turli moddalar aniqlangan. Ular ikkita katta guruhga bo'linadi: ekzoallergenlar va endoallergenlar.

I. Ekzoallergenlar - insonni o'rab turgan muhitda yashaydi va o'z navbatida ular ham qator kichik guruhlarni tashkil qiladi:

1. Oziq-ovqat allergenlari 2 guruhga bo'linadi: Birinchisi — shartsiz (obligat) allergenlar: sitrus mevalar, shokolad, kofe, asal, mevalar, yong'oqlar, tuxum, baliqlar, sut, tovuq go'shti; ikkinchi - shartli (fakultativ) guruh bo'lgan: olma, sabzi, kartoshka, un va boshqalar.

2. Uy-ro'zg'ordagi allergenlar. Birinchi navbatda bu uy changi, u murakkab antigen tarkibga ega. Uning eng asosiy allergenni mayda uy kanachalari dermatofagoides turi hisoblanadi. O'rta Osiyoda uy changi faunasida 28 dan ortiq kana turlari aniqlangan. Allergiya bilan kasallangan bemor bor xonadonlardagi uy changida sog'lom odam yashaydigan xonadonga nisbatan kanalar 3 marta ko'proq uchraydi. Kanalarining ko'payishi uchun qulay omillardan biri bu o'rin-ko'rpada namlikning ortishidir. Ularning eng faollashgan davri erta tongda qayd etiladi. Uy changi kanalarining 41 ta antigenlari allergen xususiyatiga ega bo'lib chiqdi. Uy changi hayvon, o'simlik va mikroblardan kelib chiqqan moddalarni o'z ichiga oladi. Bular: jun, shoyi, zamburug'lar. Baliqlar uchun quruq yemish hisoblangan dafniya ham yuqori allergen faollikka ega. Uy-ro'zg'or allergenlariga kutubxona changi, yostiqlarga solingan parranda patlari ham kiradi.

3. Epidermal allergenlar (turli hayvonlarning juni, ot qayzg'og'i). Epidermal allergenlarga nisbatan sezuvchanlik ko'pincha tez sodir bo'ladigan reaksiyalar tipida va odatda oziq-ovqat va

uy-ro'zg'or allergiyalari bilan birgalikda kechadi. Bolalarda bu kasallik 20 foiz holatlarda respirator allergoz tipida o'tadi.

Xullas, yuqoridagi fikrlar va ayrim tahlillar asosida, atrof muhit tozaligi uchun gayg'urush, aholi o'rtasida profilaktik chora tadbirlarni o'tkazib borish, ota-onalar tomonidan farzandlarimizga ko'proq ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berish allergik kasalliklarning oldini olishda amaliy harakat hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Волосовец А.П., Кривопустов С.П., Мозкрская Е.В., Кривопустова М.В. Белок профилин как клинически значимый аллерген в развитии синдрома аллергии Здоровье ребенка. 2019.-Т.-14. №.7.-С.434-443
2. Назаров О.А., Назаров Ж.А., Низомов Қ.Ф., Ўқув қўлланма //Клиник аллергология / Тошкент 2015 198 б.
3. "Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali №7 G.A.Muxidinova. Allergik kasalliklarning tarqalganligi turlari va oldini olish chora-tadbirlari.

### **TO'QIMACHILIK JARAYONLARINI LOYIHALASHNING DOLZARB MASALALARI**

*Imomnazarov Xurshidbek Xushnazar o'g'li, Ergasheva Zilola Muhiddin qizi*  
*imamnazarovxx@gmail.com, zilolaergasheva@gmail.com*  
*Farg'ona politexnika instituti*

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning uzluksiz o'sib borishi va aholining to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish uchun to'qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini doimiy oshirib borish talab qilinadi.

Bugungi kunda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun ko'plab yangi to'qimachilik korxonalari qurilmoqda va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar texnik va texnologik rekonstruksiya qilinmoqda. To'qimachilik sanoatining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishda ishlab chiqarishga takomillashgan texnik vositalarni, texnologiyalarni hamda ishlab chiqarishni boshqarishning samarali usullarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, texnologik jarayonlarini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash bilan bog'liq ishlar oldindan ishlab chiqiladigan loyihaviy hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Shuning uchun texnologik jarayonlarni loyihalash asoslarini bilish to'qimachilik sanoati mutaxassislari uchun zarur va muhim omil hisoblanadi.

Loyihalash bu ijodiy jarayon bo'lib, u mutaxassisdan texnika va texnologiyaning zamonaviy holati, ularning rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni hamda ishlab chiqarish jarayonini muhandis-texnik ta'minot bilan uyg'unlikda tahlil qila olishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda loyihalash jarayonlarida oqilona variantlarni tanlashda hisoblash texnikasidan foydalanish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Texnologik loyiha - bu texnologiyalardan foydalanib, maqsadga muvofiq bir qator ishlarni bajarish uchun tuzilgan loyiha yoki dastur. Bu loyihalar o'z ichiga texnik va boshqa resurslarni birlashtiradi va o'zgaruvchan maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

Texnologik loyihani ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Texnologik bilimlar: Loyiha uchun kerakli texnologiyalarni tushunish va ularni qo'llab-quvvatlash.
2. Jamoa: Yaxshi tuzilgan va ko'p toifali jamoa a'zolari loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur.
3. Maqsad va talablar: Texnologik loyihaning maqsadi va talablari aniqlanadi.
4. Tadqiqot va tahlil: Muammoni tahlil qilish va loyihani amalga oshirish uchun yo'l harakat qilish.